

SHOALIYEVA Nargiza

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti
kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

MAVLONO JALOLIDDIN BALXIY VA SUHROB SIPEHRIY SHE'RIYATIDA ISHQ TALQINI

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛЮБВИ В ПОЭЗИИ МАУЛАНА ДЖАЛАЛУДДИНА БАЛХИ И СУХРАБА СИПЕХРИ

INTERPRETATION OF LOVE IN THE POETRY OF MAULANA JALALUDDIN BALKHI AND SUKHRAB SIPEHRI

Annotatsiya: Sharq adabiyotida, Mavlono Jaloliddin Muhammad Rumi (Balxiy yoki Mavlaviy) (1207-1273) islom olami va fors adabiyoti ulamolaridan biri bo'lib, insoniyat jamiyatiga qimmatli asar va ma'naviyatni taqdim etganligi bilan ajralib turadi. Rumi va Suhrob Sipehriy (1928-1980) she'riyatida agarchi, har xil zamonda yagan bo'lsa ham, ishqning mavzusini ifodalashda ba'zi o'rinlarda umumiy bo'lsada, ba'zi hollarda har xilligini mushohada qilish mumkin.

Kalit so'zlar: Rumi, Suhrob Sipehriy, ishq, Xudo, toza, she'riyat, irfon.

Аннотация: В восточной литературе Маулана Джалалуддин Мухаммад Руми (Балхи или Мавлави) (1207-1273) – один из ученых исламского мира и персидской литературы, отличающийся тем, что подарил человеческому обществу ценный труд и духовность. В поэзии Руми и Сухраба Сипехри (1928-1980), хотя она и написана в разные эпохи, тема любви местами общая, но в отдельных случаях можно заметить, что она различна.

Ключевые слова: Руми, Сухраб Сипехри, любовь, Бог, чистота, поэзия, гнозис.

Abstract: In Eastern literature, Maulana Jalaluddin Muhammad Rumi (Balkhi or Mavlavi) (1207-1273) is one of the scholars of the Islamic world and Persian literature, distinguished by the fact that he gave human society valuable work and spirituality. In the poetry of Rumi and Suhrab Sipehri (1928-1980), although it was written in different eras, the theme of love is sometimes common, but in some cases it can be seen that it is different.

Key words: Rumi, Suhrab Sipehri, love, God, purity, poetry, gnosis.

KIRISH

Fors adabiyotining asosiy mavzularidan biri bu ishqdir. Dastlab ishq haqidagi ma'lumotlar Samarqandiy, Rudakiy va Sanoiy kabi shoirlarining she'riyatida ko'zga tashlangan. Fors adabiyotida ushbu mavzuga o'z fikrini bildirmagan shoirni uchratish mushkul albatta. Zotan, she'riyat ishqning natijasi desak xato bo'lmaydi. Mumtoz fors adabiyotida Rumiyning ishq mavzusi kuychisi sifatidagi chehrasi shu qadar esda qolarliki, uning ishq haqidagi teran va kontseptual she'rlari dunyo bo'ylab cheksiz muxlislarga ega bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda butun jahon uning ijodiga havas qilib, she'rlarini takror-takror o'qib eshitmoqda va maftunkor ohangi bilan samo raqsiga tushmoqda. Chunki u o'z asarlarida insoniy mehr-muhabbatni barcha past-balandliklari, insondagi ilohiy ishqni sayru suluki va mazmun mohiyati bilan ifodalagan.

Suhrob Sipehriy Eron zamonaviy fors adabiyotining ko'zga ko'ringan shoirlaridan biri sanaladi. U zamonaviy fors she'riyatining shakllanishida katta rol o'ynagan. Ushbu shoirning asarlari o'z hayoti davomida ko'p tanqidga uchraganiga qaramay, u hozirgi kunda XX asrning eng mashhur zamonaviy Eron shoirlaridan biri sifatida jahon uzra tan olinib kelinmoqda.

ASOSIY QISM

Jaloliddin Rumi she'riyati fors mumtoz adabiyotida tasavvufiy-irfoniy she'riyatning eng yuksak cho'qqisi sanaladi. Bron shoir bugungi kungacha ilohiy ishq mavzusida Rumiye dek yonib, kuyib she'r yozmagan. Sipehriyning she'riyati falsafiy va irfoniy mazmunga to'la bo'lib, shoir har bir she'rida ishq mavzusini butunlay boshqa shakl va mazmunda yoritadi.

Ishq Sipehriyning ichki ehtiyoji bo'lib, uni ilm va irfon orqali tashqi olam bilan aloqa o'rnatishga undaydi. Ammo uning fikricha ishqni bilish uni idrok etish oson emas chunki, ishq yo'li murakkab jarayondir.

دست از دامن شب برداشتم

تا بیاویزم به گیسوی سحر

خویش را از ساحل افکندم به آب

لیک از ژرفای دریا بی خبر (13: https://www.ganjanama.com)

(/ganjanama.com)

Qo'lni tun etagidan qo'yib yubordim

Tong kokuliga osilmoq uchun

O'zimni sohildan suvga tashladim

Dengiz qa'ridan bexabar

Sipehriyning ramziy misralaridan ma'lumki, u nur tomonga tongga intiladi, nur bu usha otash, ya'ni kuydiradigan ishq va ayni paydda u dengiz

suvi kabi tubi noma'lum...ya'ni juda murakkab jarayon.

Mavlaviy nazdidagi ishq ta'rifi:

در نگجد عشق در گفت و شنید

عشق دریانیست قعرش ناپدید (14: www.:14)
(/masnavi.net)

Ishq gap so'zlarga sig'mas

Ishq dengiz – qa'ri ko'rinmas

Fors adabiyotida Rumiy ijodidan bahramand bo'lmagan shoir o'zi yo'q, uning ta'sirini o'zidan keyingi shoirlarning she'rlarida ham his qilish mumkin. Jumladan, Sipehriy ham yangicha she'riyat uslubida ijod qilib, zamonaviy hayot tarzini badiiy, irfoniy tahlil va tasvirlarga bo'ysundirgan bo'lsa-da, Rumiy ijodidan ma'lum darajada ilhomlangan shoirlardan biridir. Ayniqsa, she'riyatda kalom ohangidan foydalanish, diniy mavzularni yoritishi, ko'zga tashlanadi. Masalan, Rumiy she'riyatida saj' san'ati juda ko'p qo'llanilgan, lekin boshqa shoirlar ijodida kamdan-kam uchraydi. Biroq, Sipehriy o'zining yangi she'riyatida ushbu san'at turini sinab ko'rdi. Uning ayrim she'rlarini o'qish Rumiy she'riyatining holatini eslatadi.

Bularning barchasidan tashqari bu ikki buyuk shoirning she'rlarida to'g'ri yechim topgan masalalar biri, ishq masalasidir. Aslida Rumiy barcha she'rlarini Shamsiga bo'lgan muhabbati tufayli orifona mazmunda ilohiy ishq sayru-sulukidagi holatini yozgan. Shoirning qalbini uyg'otgan, uning orifona she'rlari, uning ma'naviyatidagi inqilobiy o'zgarishiga sabab darvesh Shams edi. Shoir quyidagi baytlarni bejiz aytmag'an:

عاشقی پیداست از زاری دل

نیست بیماری چو بیماری دل

علت عاشق ز علتها جداست

عشق اضطراب اسرار خداست (15: www.:15)
(/masnavi.net)

Dil zoridin ishq ko'rinar bas

Hech dard, dil dardidek emas

O'zga illatlardan ayri, illati ishq

Xudo sirrining istirobidir ishq

Ya'ni, Rumiy ishqni Xudoni tanish, uning asrorlarini anglash va mushohada qilish vositasi deb biladi. Suhrob Sipehri Rumiy fikrini mustahkamlash bilan birga ishqning vazifasi barcha qalblarni bir-biriga oshiq qilishda deb biladi:

من گره خواهم زد، چشمان را با خورشید،

دل ها را با عشق،

سایه ها را با آب، شاخه ها را با باد/هشت کتاب (16: www.:16)
(/www.ganjnama.com)

Qamashturgum ko'zlarni quyoshga,

Bog'lagum qalblarni ishqqa,

Soyalarni suvga, shoxlarni yellarga....

Chunki u yaxshi biladiki, muhabbatsiz qalb o'zini anglay olmaydi, hayotning mohiyatini bila olmaydi. Ba'zida shunday bo'ladiki, ishq

o'linga qarshi turadi. Rumiy va Sipehriy fikricha, hayotning mazmuni mana shu ishqdir, chunki ishq bo'lmasa, bu hayotda nafas olish, yashash, azob-uqubat chekish behudadir. Ishq-muhabbat-mehr insonlarni bir biriga tortadi, jazb qiladi, xuddi galaktikada sayyoralarining bir birini tortib torishi, yerdagi daryo suvini bir maromda oqishi kabi, insonni ham yerda bemalol yura olishi(muallaq emasligi) ilohi ishq natijasidir, ya'ni jazaba-tortish natijasidir. Modomiki, borliq nazmi va tartibi ishqga bog'lik ekan, ishqsiz inson aslida ildizsiz insondir, u fitratidan yiroq mavjudga o'xshaydi u hayotda yashash mazmun mohiyatini yuqotaydi, u sarson, sargardon, gumroh, baxtsiz bo'lib qolaveradi, ammo bunday hayotdan naf yo'q, chunki hatto ibodat ham ishq natijasidir. Zero inson hayotidagi eng muhim narsadan o'zaro mehr-muhabbat, mehribonlik, ganxo'rlik, hamdillik to'yg'lari insonni faqat yuksaltiradi, bu qisqa muddatli inson hayotini yoqimli qiladi:

زندگی رسم خوشایندی است

زندگی بال و پری دارد با وسعت مرگ...

زندگی تر شدن پی در پی

زندگی آب تتی کردن در حوضچه اکنون است (17: www.:17)
(/www.ganjnama.com)

Hayot yoqimlidir

Hayotning o'lim kengligiday qanoti bor...

Hayot ketma ket ho'l bo'lishdir...

Hayot "hozir" havzida chumilishdir

Shuningdek, tabiatning eng go'zal hodisalaridan biri bo'lmish bahor yomg'irining tarovatini, go'zalligini ko'ra oladi, boshqa darajaga ko'radi:

دوست را زیر باران باید دید.

عشق را زیر باران باید یافت (18: n-poems.:18)
(/blogsky.com)

Do'stni yomg'ir ostida ko'rish kerak

Ishqni yomg'ir ostida toppish kerak

Ushbu satrlarda Sipehri o'z yurtining go'zal tabiatiga bo'lgan muhabbati tasvirlangan ko'rinsada, lekin bu tuyg'ularni qayta qarashga, munosabatlar yong'ir suvida yuvilgan, sof-musaffo bo'lishi kerakligini eslatmoqchi. Bunday she'riy parchalarda shoirning ishq, muhabbat va go'zallik tushunchasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Sipehriy she'rlarida shoirning nafaqat insoniy muhabbatni zikr etishi, qiziqish bildirishini, balki o'zini tevarak-atrofdagi tabiatga ham alohida e'tibor qaratganini ko'rish mumkin. U tabiatga mehr qo'yib, hatto o'simliklarga nisbatan yuksak darajada hurmat ko'rsatgan. "Bir shoir nilufar guliga qarab "Siz" derdi". Tabiat va jamiyatga bo'lgan bunday qiziqish Sipehriy davridagi, undan oldingi boshqa shoirlarda uchramagan xususiyatlaridan biridir.

Sipehriy o'zining "Manzil" she'rida do'stining uyini qidirib ketadi va o'sha uyning belgilarini ramziy ma'noda tasvirlab beradi. Shuningdek, "Ishq sadoqat qanotlaridek moviydir" deb ta'kidlaydi. Ushbu she'r bilan "Masnaviy ma'naviy" ning "Naynomasi" o'rtasida aloqa bor. Ya'ni, har ikki she'rda ham oshiq g'ariblikdan shikoyat qilib, do'stining uyini izlash bilan ovora bo'ladi. Lekin shunday bo'lsada, shoirlarning ifoda uslubi bir-biridan butunlay farq qiladi. Sepehriyning qahramoni do'stining uyi tomon yo'l olib, bir yo'lovchidan uning uyini so'raydi va u yo'lovchi hech qanday iddaosiz do'stining uyini ko'rsatadi. Biroq Mavlono "Nay"i da Nayistondan ajralib, asl joyiga qaytishni xohlaydi. "Masnaviy" ning muallifi "Naynoma"ning so'nggi misrasida shunday deydi: "Xom" ya'ni ishq bobida tajribasiz bo'lgan shaxs, "ishqqa yetishgan inson"ning holatini anglamaydi. Shu sababli "gap qisqa bo'lgani ma'qul". Sipehri she'rlarining qahramoni ham yo'lovchidan do'stining uyini so'rab, undan chiroyli javob oladi. Sepehriyning "Yo'lovchi" si "Masnaviy"da tilga olingan "ishqqa yetishgan inson" qahramoni misoldir. Shubhasiz, bu "Yo'lovchi" "Mantiq ut Tayr"da zikr etilgan o'sha Hudhud qushidir.

Sepehriy ishq va uning qirralari haqidagi o'z fikrlarini "Suv odimini tovuishi" va "Yo'lovchi" kabi ikki mashhur manzumalarida ifodalab, ishqning mazmun-mohiyatini ko'rsata bilgan, shoirning buyukligi go'zal poetik obrazlar va ramzlar bilan izohlagan. Uning irfoniy mavzuda ijod qilishi uning yangi fors she'riyatidagi mahorati va yuksak tafakkurini belgilaydi. Darhaqiqat, aynan Sipehriy yangi fors she'riyatini o'ziga xos uslub va mazmunda ishlab chiqqan bo'lib, uning hayoti va she'riyatiga qiziqishning ko'pligi uning haqiqiy san'at sohibi va nozik tab'li ijodkor ekanligidan dalolat beradi.

XULOSA

Rumi va Sipehriy she'rlaridagi ishq timsoliga umumiy nazar tashlasak, quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Ishq – fors adabiyotining azaliy mavzularidan biri bo'lib, mumtoz adabiyotning ko'zga ko'ringan namoyandasi bo'lmish Rumiyaning she'riyatida alohida o'rin olgan va ilohiy ishq sayru suluki keng yoritilgan bo'lib, chuqqilarga ko'tarigan, Sepehriyning ijodida esa yangi bayonda, yangi ko'rinishda namoyon bo'lgan.

Rumi she'rlarida Xudoga nisbatdan ishq ko'proq madh etilgan, Sipehriy she'riyatida esa insonning tevarak-atrofga bo'lgan o'zi

xos muhabbatini ko'rish mumkin Shoir gul va o'simliklarda ham Xudoni ko'radi va ularga ham alohida muhabbat ko'rsatadi.

Sipehriyning "Manzil" she'rini, Rumiyaning "Nay noma"si bilan mazmun jihatidan mos keladi. Ikkala she'rda ham sevgan insonning joyini izlash, ajralish haqida so'z boradi.

Sipehriy o'z she'rlarida orifona ish qarashlarini yangicha talqinda ko'rsata oldi, hozirgi zamon adabiyotida mumtoz fors adabiyoti g'oyalarini davom ettira oldi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фаридулдин Аттор. Мантик ут-тайр / Форсийдан Жамол Камол таржимаси. – Т.: Фан, 2006.
2. Мухаммад Истеъломий. Илоҳий ишқ кўйчиси (Жалоллиддин Румий ҳақида) / Ўзбек тилига Ж. Мухаммад таржимаси. – Техрон, 2001. – 88 б.
3. Худоёр Иброҳим. Марварид излаган шоир // Сино. – 2001. – Баҳорги сони. – Б. 37.
4. Шоалиева Н. Қизил гулнинг сири: Сухроб Сипехрий ҳаёти ва ижодига чизгилар. – Т.: Ёзувчи, 2002. – 94 б.
5. Иброҳим Ҳаккул. Ирфон ва идрок. – Т.: Маънавият, 1999.
6. سېھری سهراب. هشت کتاب. تهران: چاپ پانزدهم. نشر طهوری. ۱۹۹۶. ص. ۶۰۷.
7. سجادی سید جعفر. فرهنگ اصطلاحات و تعبیرات عرفانی. تهران: نشر طهوری، ۱۹۹۱، ص. ۸۱۴.
8. سیاهسالار فریدون ابن احمد. زندگی نامه مولانا جلال الدین مولوی. تهران: نشر هقیل، ۱۹۵۱، ص. ۴۱۳.
9. Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. – Ж. 1. / Жамол Камол таржимаси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001. – С. – 373.
10. Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. – Ж. 2. / Жамол Камол таржимаси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – С. – 335.
11. Shoaliyeva N. "Seven Stages in "Mantic Ut-Tyre" ("The Journey Of Logic") By Attar in Sukhrob Sipehri's Poem "Adress" // The Light of Islam, N 4. 2019: 19.
12. Shoaliyeva, N. (2022). Бедил ва мангу маънавият. Editorial board, 622.
13. https://www.ganjanama.com/View/5100/5107/502106/%D8%B1%DB%8C_Sohrab-Sepehri.html
14. <http://www.masnavi.net/2/25/eng/5/2731/>
15. <http://www.masnavi.net/2/10/eng/1/109/>
16. https://www.ganjanama.com/View/5100/5105/502078/%D8%B3%D9%87%D8%B1%D8%A7%D8%A8-%D8%B3%D9%DB%8C_Sohrab-Sepehri.html
17. <https://n-poems.blogspot.com/1391/11/01/post-330/>
18. <https://n-poems.blogspot.com/1391/11/03/post-334/>